Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. Toshkent, “Fan”, 1995.

(2). Djumabaeva J. Graduonymy as a Semantic Phenomenon in Uzbek Linguistics. Arts and Social Sciences Journal, 2016, vol. 7, № 4.

(3). Lyons J. Language and Linguistics. An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, 1981.

(4). Cruse D.A. Meaning in Language. An Introduction to Semantics and Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 2004.

(5). Lakoff G. Women, Fire and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. Chicago, The University of Chicago Press, 1987.

(6). Norkuziyeva N. O‘zbek tilida payt ravishlarining semantik xususiyatlari. Toshkent, 2022.

(7). O‘rinboyeva M., Xo‘jamqulov Sh. O‘zbek folklori tilidagi payt ravishlarining semantik tadqiqi. – Toshkent, 2021.

(8). Sayidazimova D. Ingliz tilida chastotalik ma’nolarining graduonimik ifodasi. Filologik tadqiqotlar. – Toshkent, 2023.

Kushmanov Jasur Baxodirovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD), prof. v.b.; email: jasur.k@urdu.uz; ORCID: https://orcid.org/0009-0007-9833-1623)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING GENDER ASSIMETRIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi genderga oid frazeologik birliklarning qiyosiy-semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida erkak va ayol obrazini ifodalovchi frazeologizmlarning baholash komponenti, konnotativ ma'nosi hamda pragmatik vazifalari qiyosiy aspektda o‘rganildi. Tahlillar natijasida har ikki til frazeologik fondida gender assimetriyasi mavjudligi, erkak obrazining asosan ijobiy semantik maydonda, ayol obrazining esa ko‘proq salbiy yoki stereotipik baholash asosida shakllanganligi aniqlandi. Shuningdek, gender stereotiplarining milliy-madaniy omillar bilan bog‘liqligi hamda ularning frazeologik birliklar orqali avloddan avlodga uzatilishi ilmiy asoslandi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, gender lingvistikasi, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik sohalari uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, gender lingvistikasi, gender assimetriyasi, frazeologik birlik, lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik, semantik tahlil, pragmatika, stereotip, o‘zbek tili, ingliz tili.*

ГЕНДЕРНАЯ АСИММЕТРИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. *В статье проводится сравнительно-семантический и лингвокультурологический анализ гендерно маркированных фразеологических единиц узбекского и английского языков. Исследуются оценочный компонент, коннотативное значение и прагматические особенности фразеологизмов, характеризующих мужчину и женщину. Анализ показал, что в обоих языках наблюдается гендерная асимметрия: мужской образ преимущественно связан с положительными качествами, такими как сила, смелость и лидерство, тогда как женский образ чаще характеризуется через красоту, эмоциональность и традиционные социальные роли. Полученные результаты имеют теоретическое и практическое значение для сравнительного языкознания, гендерной лингвистики, лингвокультурологии и переводоведения.*

Ключевые слова: *фразеология, гендерная лингвистика, гендерная асимметрия, фразеологическая единица, лингвокультурология, сравнительное языкознание, семантика, прагматика.*

GENDER ASYMMETRY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN UZBEK AND ENGLISH

Annotation. *This article presents a comparative semantic and linguacultural analysis of gender-related phraseological units in Uzbek and English. The study examines the evaluative component, connotative meaning, and pragmatic functions of phraseological units representing male and female images. The findings reveal that gender asymmetry is reflected in the phraseological systems of both languages: male images are predominantly associated with positive semantic characteristics such as strength, courage, and leadership, whereas female images are more frequently represented through beauty, emotionality, and stereotypical social roles. The research also demonstrates that phraseological units preserve and transmit national-cultural perceptions of gender across generations. The results contribute to comparative linguistics, gender linguistics, phraseology, translation studies, and linguocultural research.*

Keywords: *phraseology, gender linguistics, gender asymmetry, phraseological unit, linguoculturology, comparative linguistics, semantics, pragmatics, stereotype.*

Kirish. So‘nggi yillarda jahon tilshunosligida antropotsentrik paradigma doirasida tilni inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday yo‘nalishlardan biri bo‘lgan gender lingvistikasi erkak va ayol obrazining til vositalari orqali ifodalanishi, ularning kommunikativ xususiyatlari hamda jamiyatdagi gender stereotiplarining til tizimida aks etishini tadqiq etadi. Til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki muayyan jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy qarashlarini saqlovchi murakkab semiotik tizim sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli genderga oid tasavvurlar eng avvalo tilning barqaror qatlamlarida, xususan, frazeologik birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi [1;18-b.]. Frazeologik birliklar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, urf-odatlari va mentalitetining mahsuli bo‘lib, ularda milliy dunyoqarashning muhim elementlari mujassamlashgan [6;27-b.]. Ayniqsa, erkak va ayolning jamiyatdagi o‘rni, oiladagi vazifalari, axloqiy me'yorlar va estetik qarashlar ko‘plab frazeologik birliklarda baholovchi semantika orqali ifodalanadi. Natijada ayrim frazeologizmlar gender stereotiplarini mustahkamlasa, boshqalari ularning tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi [15;37-b.].

Bugungi kunda ingliz tilida genderga oid frazeologik birliklar yuzasidan qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida bu masala, ayniqsa, qiyosiy aspektda, yetarli darajada yoritilmagan. Mavjud tadqiqotlarda frazeologik birliklarning semantik va uslubiy xususiyatlari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning gender nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlili alohida tadqiqot obyekti sifatida kam ko‘rib chiqilgan [13; 73-b.]. Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi genderga oid frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish, ularda namoyon bo‘ladigan gender assimetriyasining semantik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash hamda ikki xalqning gender konsepsiyasi o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni yoritishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qiyosiy-tipologik, tavsifiy, semantik, lingvokulturologik hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi [16;91-b.].

Adabiyotlar tahlili. Gender lingvistikasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Ushbu yo‘nalish vakillari tilni nafaqat kommunikativ vosita, balki jamiyatdagi gender munosabatlari va stereotiplarini aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida baholaydilar. Genderga oid tadqiqotlarning nazariy asoslari R.Lakoff, J.Coates, D.Cameron, J. Holmes va S.Mills kabi olimlarning ilmiy ishlari bilan chambarchas bog‘liq. Gender lingvistikasining asoschilaridan biri hisoblangan Robin Lakoff til tizimida erkak va ayol nutqi o‘rtasidagi tafovutlar biologik omillar bilan emas, balki ijtimoiy stereotiplar bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, til jamiyatdagi gender tengsizligini aks ettirish bilan birga, uni saqlab qolish va mustahkamlashga ham xizmat qiladi [1;45-b.]. Mazkur nazariya genderga oid frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini izohlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jennifer Coates esa genderni sotsiolingvistik kategoriya sifatida baholab, erkak va ayol nutqidagi tafovutlarni kommunikativ strategiyalar bilan izohlaydi. Uning fikricha, til birliklarida uchraydigan gender stereotiplari jamiyatning madaniy qadriyatlari va tarixiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, frazeologik birliklar ana shu stereotiplarning eng barqaror ko‘rinishlaridan biridir [4;52-b.]. Deborah Cameron genderni biologik emas, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qiladi. Olim til birliklarida erkak va ayol obrazining turlicha baholanishi tarixiy-madaniy omillar bilan bog‘liqligini asoslaydi hamda gender stereotiplarini tanqidiy yondashuv asosida tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi [3;88-b.]. Mazkur yondashuv o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda kuzatiladigan gender assimetriyasini izohlash uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Janet Holmes tilning ijtimoiy funksiyalarini o‘rganar ekan, erkak va ayol nutqidagi farqlar faqat grammatik yoki leksik birliklarda emas, balki frazeologik birliklarda ham yaqqol namoyon bo‘lishini qayd etadi. Uning fikricha, frazeologizmlar xalqning genderga oid kollektiv tajribasi va baholash mezonlarini saqlovchi lingvomadaniy birliklardir [2;118-b.].

Sara Mills esa gender stereotiplarini til birliklari orqali yashirin tarzda uzatiladigan diskriminatsion mexanizmlar sifatida izohlaydi. Olim ayniqsa ayol obrazini ifodalovchi turg‘un birikmalarda salbiy baholash komponentining ustunligini alohida ta'kidlaydi [5;94-b.]. Mazkur qarashlar o‘zbek va ingliz tillaridagi ayol obraziga oid frazeologizmlarni tahlil qilishda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Frazeologiya nazariyasi bo‘yicha A.V.Kuninning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Olim frazeologik birliklarni semantik yaxlitlik, turg‘unlik va qayta tiklanuvchanlik belgilariga ko‘ra tasniflaydi hamda ularning milliy-madaniy xususiyatlarini batafsil yoritadi [6;64-b.]. Kuninning fikricha, frazeologizmlar xalqning tarixiy tajribasi va madaniy xotirasini o‘zida mujassamlashtiruvchi til birliklari hisoblanadi. Aynan shu jihat gender stereotiplarining frazeologik birliklarda uzoq muddat saqlanib qolishini izohlaydi. V. V.Vinogradov frazeologik birliklarni semantik jihatdan tasniflab, ularni frazeologik chatishmalar, frazeolo-

gik butunliklar va frazeologik qo‘shilmalar guruhlariga ajratadi [7;145-b.]. Ushbu tasnif genderga oid frazeologik birliklarning struktur-semantik xususiyatlarini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. V.N.Teliya frazeologiyani lingvokulturologik nuqtayi nazardan o‘rganib, frazeologik birliklar milliy madaniyatning "kodlari" ekanligini ta'kidlaydi [8;117-b.]. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, har bir frazeologizm xalqning qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiradi. Demak, gender stereotiplari ham frazeologik birliklar orqali madaniy kod sifatida avloddan-avlodga uzatiladi. V.A.Maslova lingvokulturologiya nazariyasida til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini asoslab, frazeologik birliklarni milliy mentalitetning asosiy ifodachilaridan biri sifatida baholaydi [9;102-b.]. Olimning mazkur qarashlari gender konseptlarini lingvokulturologik aspektda tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya masalalari A.E.Mamatov tomonidan tizimli ravishda o‘rganilgan. Olim o‘zbek frazeologik fondining shakllanishi, semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilib, frazeologik birliklarning milliy tafakkur bilan uzviy bog‘liqligini asoslab bergan [13;73-b.]. Uning tadqiqotlari mazkur maqolaning frazeologik tahlili uchun asosiy nazariy manbalardan biri hisoblanadi. Sh. Rahmatullayevning frazeologik lug‘ati o‘zbek tilidagi turg‘un birikmalarni izohlashda eng muhim manbalardan biri sanaladi. Olim frazeologik birliklarning ma’nosi, qo‘llanishi va uslubiy xususiyatlarini batafsil tavsiflagan [14;112-b.]. Mazkur lug‘atdan maqolada keltirilgan ko‘plab o‘zbek frazeologizmlarining semantik tahlilida foydalanildi. N.Mahmudov til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligini o‘rganar ekan, til birliklari xalqning milliy tafakkuri va qadriyatlarini ifodalovchi vosita ekanligini ta'kidlaydi [15;37-b.]. Bu yondashuv genderga oid frazeologik birliklarning lingvomadaniy mohiyatini ochib berishda muhim metodologik asos bo‘ldi. Q.Musayevning tarjimashunoslikka oid ilmiy ishlari frazeologik birliklarning ekvivalentligi va milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan [16;91-b.]. Ayniqsa, o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning tarjimasida milliy koloritni saqlash masalalari mazkur tadqiqot uchun muhim nazariy asos hisoblanadi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tilshunoslikda gender va frazeologiya masalalari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida gender assimetriyasining aynan frazeologik, birliklar misolida qiyosiy aspektda tadqiq etilishi hali yetarli darajada yoritilmagan. Mavjud tadqiqotlar asosan, frazeologiyaning umumiy nazariyasi, lingvokulturologik xususiyatlari yoki tarjima muammolariga bag‘ishlangan. Shuning uchun o‘zbek va ingliz tillaridagi genderga oid frazeologik birliklarning qiyosiy-semantik hamda lingvokulturologik tahlili mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida bir necha ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, qiyosiy-tipologik metod yordamida o‘zbek va ingliz tillaridagi genderga oid frazeologik birliklar semantik va struktur jihatdan o‘zaro taqqoslandi hamda ularning umumiy va farqli xususiyatlari aniqlandi.Tavsifiy (deskriptiv) metod orqali frazeologik birliklarning lug‘aviy ma’nosi, uslubiy xususiyatlari va qo‘llanish doirasi tavsiflandi. Ushbu metod genderga oid frazeologizmlarning til tizimidagi o‘rni va ularning semantik yuklamasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tahlil va muhokama. Frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, milliy mentaliteti va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan til birliklari hisoblanadi. Gender lingvistikasi nuqtai nazaridan ular erkak va ayol obrazining jamiyatda qanday konseptuallashtirilganini aks ettiradi. Til nafaqat voqelikni ifodalaydi, balki gender stereotiplarini shakllantirish va ularni saqlab qolishda ham muhim vosita vazifasini bajaradi [3;88-b.], [15;37-b.]. Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda gender assimetriyasi, avvalo, baholash komponentida namoyon bo‘ladi. Ayollarga oid frazeologizmlar, ko‘pincha, salbiy yoki kinoyaviy semantik yuklamaga ega bo‘lsa, erkak obraziga oid birliklarda ijobiy baholash ustunlik qiladi [4;52-b.], [8;117-b.]. Masalan, o‘zbek tilidagi “Sochi uzun, aqli kalta” iborasi ayolning tashqi ko‘rinishini uning aqliy salohiyati bilan bog‘laydi. Ingliz tilidagi “Long hair, short wit” frazeologizmi ham aynan shu mazmunni ifodalaydi. Har ikkala birlik ayolning intellektual imkoniyatlarini past baholovchi gender stereotipining mahsuli hisoblanadi [1;45-b.], [5;94-b.]. Mazkur frazeologizmlar til orqali ayolning ijtimoiy mavqeyini emas, balki tarixan shakllangan stereotipik tasavvurlarni aks ettiradi [9; 102-b.].

O‘zbek tilida “Ayolning aqli etagida”, “Sochi uzun, aqli kalta” kabi iboralar ayol tafakkuriga nisbatan salbiy munosabatni bildirsa, ingliz tilida “A woman’s place is in the home” iborasi ayolning asosiy vazifasi uy-ro‘zg‘or ishlari bilan cheklanishini ifodalaydi. Zamonaviy gender tadqiqotlarida bunday birliklar patriarxal madaniyat mahsuli sifatida baholanadi [3;88-b.], [4;65-b.].

Ayol nutqiga oid frazeologik birliklarda ham salbiy baholash ustunlik qiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “Ezma xotin”, “Kampirning gapi qirq yilga yetadi”, “Gap tashuvchi xotin” kabi iboralar ayolning sergapligi va mish-mish tarqatishga moyilligini ifodalaydi. Ingliz tilida esa “Old wives' tale”, “Gossip like an old

woman", "Catty woman" kabi birliklar shunga yaqin ma'noga ega. Ushbu frazeologizmlar ayollar nutqiga nisbatan salbiy pragmatik munosabat mavjudligini ko'rsatadi [2;214-b.], [5;96-b.].

Erkak obraziga oid frazeologik birliklar esa aksariyat hollarda ijobiy semantik maydonga mansub. Jumladan, "Erkak so'zi", "Arslonday yigit", "Tog'dek yigit", "Bilagi zo'r" kabi o'zbek frazeologizmlari erkakni jasur, kuchli va ishonchli shaxs sifatida tavsiflaydi. Ingliz tilidagi "A man's word is his bond", "As brave as a lion", "Stand like a man", "Strong as an ox" birliklari ham ayni konseptni ifodalaydi [6; 184], [19;96-b.]. Gender assimetriyasining yana bir ko'rinishi erkak va ayolning bir xil xatti-harakatiga nisbatan turlicha baho berilishida kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi "Womanizer" ko'p ayollar bilan ishqiy munosabatda bo'luvchi erkakni anglatsa, "Loose woman" iborasi ayolga nisbatan keskin salbiy axloqiy bahoni ifodalaydi. O'zbek tilida ham "Xotinboz" so'zi ayrim nutqiy vaziyatlarda yumshoq baholansa, "Yengiloyoq ayol" iborasi keskin salbiy konnotatsiyaga ega. Bu hodisa gender lingvistikasida double standard deb ataladi [3;142-b.], [4;154-b.].

Oiladagi gender rollarini ifodalovchi frazeologizmlar ham assimetriyani yaqqol ko'rsatadi. O'zbek tilidagi "Erkak uyning ustuni", "Oila boshlig'i, "Ro'zg'orning suyanchig'i" birliklari erkakning yetakchi rolini ifodalasa, ayol "Uy Bekasi", "O'choq boshi egasi" sifatida tavsiflanadi. Ingliz tilidagi "Bread winner», "Head of the family", "Housewife" birliklari ham aynan shu konseptual modelni aks ettiradi [2;175-b.], [15;109-b.]. Shuningdek, tashqi ko'rinishga oid frazeologik birliklarda ham gender assimetriyasi kuzatiladi. O'zbek tilidagi "Oydek yuz", "Pariday go'zal", "Gulday qiz" kabi iboralar ayolning go'zalligini ifodalasa, "Arslonday yigit", "Tog'dek yigit" kabi birliklar erkakning kuchi va salobatini tavsiflaydi. Ingliz tilidagi "As pretty as a picture", "Beauty queen", "Strong as an ox", "Tall, dark and handsome" frazeologizmlarida ham xuddi shunday semantik tafovut kuzatiladi [4;181-b.], [13;135-b.].

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda erkak obrazi ko'proq kuch, jasorat, yetakchilik va ishonchlilik bilan bog'langan bo'lsa, ayol obrazi go'zallik, hissiylik, uy-ro'zg'or va axloqiy me'yorlar orqali tavsiflanadi. Bu esa frazeologik tizimda gender assimetriyasining tarixiy-madaniy omillar ta'sirida shakllanganligini tasdiqlaydi.

Xulosa. O'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda gender assimetriyasi izchil va tizimli xarakter kasb etadi. Har ikki tilning frazeologik fondida erkak va ayol obrazlari turli semantik mezonlar asosida konseptuallashtirilgan bo'lib, bu holat jamiyatda tarixan shakllangan gender stereotiplarining til tizimida o'z aksini topganligini ko'rsatadi [5;143-b.].

Tahlillar natijasida ayol obrazini ifodalovchi frazeologik birliklarda salbiy baholash, hissiylik, sergaplik, go'zallik va oilaviy vazifalarga urg'u berilishi kuzatildi. Erkak obraziga oid birliklarda esa jasorat, kuch-qudrat, ishonchlilik, yetakchilik va mas'uliyat kabi ijobiy semantik belgilar ustunligi aniqlandi. Shuningdek, bir xil ijtimoiy xatti-harakatning erkak va ayolga nisbatan turlicha baholanishi, ya'ni, double standard hodisasi har ikki til frazeologik tizimida mavjudligi isbotlandi [6;201-b.]. Qiyosiy tahlil shuningdek, o'zbek va ingliz frazeologiyasida umumiy patriarxal qarashlarning mavjudligi bilan bir qatorda, har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlaridan kelib chiqadigan o'ziga xos farqlar ham mavjudligini ko'rsatdi. O'zbek frazeologiyasida oilaviy munosabatlar va axloqiy qadriyatlar ustuvor bo'lsa, ingliz tilidagi frazeologik birliklarda shaxsiy mustaqillik va individual xulq-atvor bilan bog'liq gender baholari ko'proq uchraydi [7;168-b.].

Mazkur tadqiqot natijalari gender lingvistikasi, qiyosiy frazeologiya, lingvokulturologiya hamda tarjimashunoslik yo'nalishlarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Xususan, genderga xos frazeologik birliklarning tarjima jarayonidagi ekvivalentlik darajasini, ularning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini chuqurroq o'rganish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [2;214-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Lakoff R. Language and Woman's Place. New York, Harper & Row, 1975, 83 p.

(2). Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. 5th ed. London, Routledge, 2013, 512 p.

(3). Cameron D. Feminism and Linguistic Theory. 2nd ed. London, Macmillan Press Ltd., 1992, 248 p.

(4). Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language. 3rd ed. London, Routledge, 2004, 228 p.

(5). Mills S. Language and Sexism. Cambridge, Cambridge University Press, 2008, 192 p.

(6). Кунин А.В. Курс английской фразеологии современного английского языка. Москва, "Высшая школа", 1984, 336 с.

(7). Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. Избранные труды. Лексикология и лексикография. Москва, "Наука", 1977, с. 140–161.

(8). Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва, Школа «Языки русской культуры», 1996, 288 с.
(9). Маслова В.А. Лингвокультурология. Москва, "Академия", 2001, 208 с.
(10). Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. Москва, "Флинта", 2005, 416 с.
(11). Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. New York, Harcourt, Brace and Company, 1921, 258 p.
(12). Whorf B.L. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. Cambridge, MA: MIT Press, 1956, 278 p.
(13). Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi masalalari. Toshkent, "Fan", 1999, 216-bet.
(14). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent, "O'qituvchi", 1992, 378-bet.
(15). Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent, "Ma'naviyat, 2009, 176-bet.
(16). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, "Fan", 2005, 232-bet.
(17). Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent, "Sharq", 2008, 286-bet.
(18). Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2010, 464-bet.
(19). Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning uslubiy xususiyatlari. Toshkent, "Fan", 2006, 184-bet.
(20). O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik, Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.

Xakimova Dildora Ikromovna (Alfraganus university, Filologiya fakulteti, f.f.f.d., dotsent;
e-mail:lucky dilya86@mail.ru; ORCID:0009-0004-6676-5388)

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA EVOLUSTIYASI VA TRANSLINVAL DISKURS

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi, translingvizm bilan o'zaro bog'liqligi hamda raqamli muhitda ingliz, o'zbek va rus tillarining integratsiyasi tahlil qilinadi. Gibrid til birliklari, yoshlar jargoni va translingval diskursning raqamli platformalardagi namoyon bo'lishi yoritiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt va gibrid kommunikativ modelning zamonaviy kommunikatsiyadagi roli ko'rib chiqiladi. Tadqiqot raqamli kommunikatsiya va translingvizmning yoshlar nutqi hamda raqamli diskurs rivojiga ta'sirini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *raqamli kommunikatsiya, translingvizm, translingval diskurs, gibrid kommunikatsiya, yoshlar jargoni, kod almashinuvi, til gibridizatsiyasi, sun'iy intellekt, raqamli diskurs.*

Хакимова Дилдора Икромовна (д.ф.ф.н., доцент факультета филологии, Alfraganus University)

ЭВОЛЮЦИЯ ЦИВРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ И ТРАНСЛИНГВАЛЬНЫЙ ДИСКУРС

Аннотация. *В статье рассматриваются развитие цифровой коммуникации, ее взаимосвязь с транслингвизмом и интеграция английского, узбекского и русского языков в цифровой среде. Анализируются гибридные языковые единицы, молодежный жаргон и проявление транслингвального дискурса на цифровых платформах. Также рассматривается роль искусственного интеллекта и гибридных коммуникативных моделей. Результаты показывают влияние цифровой коммуникации и транслингвизма на молодежную речь и развитие цифрового дискурса.*

Ключевые слова: *цифровая коммуникация, транслингвизм, транслингвальный дискурс, гибридная коммуникация, молодежный жаргон, переключение кодов, гибридизация языка, искусственный интеллект, цифровой дискурс.*

Khakimova Dildora Ikromovna (Associated professor (PhD) of Philological Faculty, Alfraganus University)

EVOLUTION OF DIGITAL COMMUNICATION AND TRANSLINGUAL DISCOURSE

Annotation. *This article examines the development of digital communication, its relationship with translingualism, and the integration of English, Uzbek, and Russian in the digital environment. It focuses on hybrid language units, youth jargon, and translingual discourse on digital platforms. The role of artificial intelligence and hybrid communicative models in contemporary communication is also discussed. The findings highlight the influence of digital communication and translingualism on youth speech and digital discourse.*

Keywords: *digital communication, translingualism, translingual discourse, hybrid communication, youth jargon, code-switching, language hybridization, artificial intelligence, digital discourse.*

Kirish (Introduction) Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda raqamli kommunikatsiya insonlar, ijtimoiy institutlar va tashkilotlar o'rtasidagi axborot almashinuvining asosiy shakllaridan biriga aylandi. Raqamli kommunikatsiya deganda raqamli texnologiyalar, internet platformalari hamda elektron qurilmalar